
Таълим алмашинувлари ўз натижасини бермоқда

Maizuru shahri va Rishton tumani o'rtasidagi aloqalar 2019 yilda imzolangan memorandum bilan boshlanib, har yili 3 nafar talabalar Maizuru shahrida joylashgan Politexnika kollejida o'qish uchun ta'lim grantlari asosida qabul qilinib kelmoqda. Ularning ilk qadrig'ochlari 2022 yil aprel oyida Rishton Noriko maktabi o'quvchilaridan qabul qilingan edi. Ushbu Talabalar joriy yilning mart oyida kollejni bitirishadi. O'tgan 2 yil mobaynida talabalar Kollej ta'limlarini mukammal darajada egallab, rasmdagi mashinani o'z dizayn va salohiyatlarini ishga solib, yig'ishga muzaffaq bo'lishdi va 18.02.2024 yil. butun Yaponiya bo'ylab o'tkaziladigan "Yomon yo'llar uchun mo'ljallangan elektromobil va qo'l bola yig'ilgan transport poygasi" da ilk bor xorijlik talabalar sifatida ishtirok etishdi. O'zbekistonlik Talabalar ushbu musobaqada ishtirok etgan ko'plab kollej vakillari orasida yetarlicha natijalar ko'rsatib, "Eng e'tirofqa sazovor" (Best Pint award) nomli so'vrinni qo'lga kiritishdi. Ma'lumot sifatida aytish kerakki, Politexnika kolleji 2 yillik ta'lim bo'lsa-da, Talabalar o'z sohalari bo'yicha Maizuru shahrida joylashgan katta kompaniyalarga ishga joylashib ulgurishgan. Joriy yilning mart oyida Politexnika kollejini bitirishadi va aprel oyidan boshlab to'laqonli xodim sifatida faoliyatlarini boshlashadi. Yurtdoshlarimizga buyog'iga ham olg'a intilishlarini so'rab, ularga omad tilab qolaman.

2024-02-19 13:00:29